

Dizayn Metodologiyasining Nazariy Asoslari

O. S. Kasimov¹

Annotatsiya: Badiiy ijod va muhandislik dizayni qonuniyatlarini bilish, bunda ergonomika, iqtisodiyot, sotsiologiya va psixologiya qonunlarini tushunish, materiallar va texnologiyalar sohasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqot usullariga ega bo'lish dizayn faoliyatining asosi deb aytish mumkin.

Kalit so'zlar: metodologiya, dizayn, dizayner, ob'ektiv, metodologiya, ergonomika, iqtisodiyot, sotsiologiya, loyiha, kompozitsiya.

Bugungi zamonaviy dunyoda, dizayn turli xil bilim sohalarini birlashtiradi, ularni ob'ektiv dunyoda namoyon qiladi, bu inson bilan o'zaro muloqot degani. Shu munosabat bilan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ham ko'payib, ularning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. "Dizayn metodologiyasi asoslari" fanini o'rganishdan maqsad oliy o'quv yurtining bo'lajak bitiruvchilarida moddiy dunyoning yangi predmet-funksional shakllarini ishlab chiqish va yaratish uchun yetarli bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat², deb yozadi M.S.Kuhta. U aynan metodologiya orqali dizaynda loyiha va ishlab chiqarish orasidagi ajralmas bog'likni ko'rsatib beradi.

Badiiy ijod va muhandislik dizayni qonuniyatlarini bilish, bunda ergonomika, iqtisodiyot, sotsiologiya va psixologiya qonunlarini tushunish, materiallar va texnologiyalar sohasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqot usullariga ega bo'lish dizayn faoliyatining asosi deb aytish mumkin.

Demak biz dizaynga qiziqar ekanmiz, dizaynga qo'shni bo'lgan boshqa fanlarni ham chuqur o'rganishimiz kerak bo'ladi. Talabalarni har tomonlama yuksak manaviyatga ega bo'lishi ularni qaysi fanlarni tanlashi va qay darajada ko'nikmalar hosil qilishiga bog'liq.

Dizayn so'zini oldiniga fikrlar jamlanmasi deb faraz qilaylik. Xalqaro dizayn tashkiloti ICSID quyidagi fikrni taklif qiladi: "Dizayn" (ing. Design) - bu ijodiy faoliyat bo'lib, uning maqsadi sanoat tomonidan ishlab chiqarilgan ob'ektlarning rasmiy sifatlarini aniqlashdan iborat. Shaklning nafaqat tashqi ko'rinishiga, balki asosan tizimni ishlab chiqaruvchi va iste'molchi nuqtai nazaridan yaxlit birlikka ega bo'luvchi tarkibiy va funksional munosabatlarga tegishli.

Dizayn - bu ob'ektiv dunyoni loyihalashda faoliyatning yangi turini bildiruvchi atama bo'lib, unda dizayn sanoat ishlab chiqarish tomonidan boshqariladigan inson muhitining barcha jihatlarini qamrab olishga intiladi. Tez kunlarda dizayn so'zini, uning manosi tushunmagan inson er sharida qolmasa kerak.

Dizayn - bu moddiy dunyo ob'ektlarini rivojlantirish, yaratish va ulardan foydalanishga qaratilgan ijodiy va asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u go'zallik va qulaylikni ta'minlovchi sohadir. Dizaynni shakllantirish jarayoni ming yillar davomida yangi kompozitsion echimlar, konstruktsiyalarni izlashning ijodiy jarayoni, yangi shakllar, masshtablar, ranglar palitrasi, sifatida o'z davrida ma'lum bo'lgan mavjud materiallar va texnologiyalar asosida rivojlanib kelmoqda. Dizayn va "dizayner" kasbi qachon paydo bo'lgan? Bu masala bo'yicha turli nuqtai nazarlar mavjud³.

Yer yuzida inson paydo bo'libdiki o'sha paytda dizayn ham paydo bo'lgan. faqatgina u davrda dizayn deb atalmagan. Odamlarning fikrlashlari dunyoqarashlari o'zgarib borar ekan ular ishlatadigan so'zlarda ham o'zgarishlar bo'ladi.

¹ Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va Dizayn instituti dotsenti, s.f.f.doktori

² М.С. Кухта. История и методология дизайн-проектирования. Издательство ТПУ 2021.

³ М.С.Кухта. История и методология дизайн-проектирования. Издательство ТПУ 2021.



Insonlar o'z atrof-muhitini bezashni o'rgandi, atrofdagi go'zallikni his qildi va xatto o'sha go'zallik ular uchun nafaqat ilhom baxsh etdi balki barcha voqea va hodisalar kalitini ham o'zi ko'rsatib berdi. Insonlardan ibtidoan to intiqomgacha o'rganish va mehnat qilish talab etiladi holos, chunki jumboqni tuzib bergan tabiat o'sha jumboqlar kalitlarini ham o'zi bizga beradi.

Dizayn so'zi 18-asr oxiriga kelib, qo'lda narsalarni ishlab chiqarishni o'rnini mashina egallay boshladi. Bu esa ilmda texnologik inqilobni yuzaga keltirdi, natijada qo'l mexnatini avtomatlashtirilgan mashinalar bemaolol bajara boshladi. bu ikki xil usul biri birisiga joy berdi, natijada standartlashtirish zarurati paydo bo'ldi. Dizayn "inson - ob'ekt" munosabatlarining yangi bosqichi tufayli sub'ekt muhitida sintezning rivojlanishi bilan bog'liq.

Zamonaviy sanoat dizayneri avtomobillar, muzlatgichlar, kofe maydalagichlarni loyihalashtirmoqda - ko'pincha plastmassadan tayyorlangan buyumlardan foydalanilmoqda, an'anaviy sanoat maktablarida ixtisoslashuv yo'q. Ko'pincha siz turli xil materiallarning kombinatsiyasidan va "kecha ixtiro qilingan" texnologiyalardan foydalanib kelasiz.

Zamonaviy rassom-dizayner sanoat ishlab chiqarishiga mos ravishda moslashtirish uchun materiallar va texnologiyalarni bilishdan tashqari, ishlab chiqarish va marketingning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganishi lozim. Amerika - sanoat dizayni mutaxassisligi rivojlangan mamlakat bo'lib, ularning ishlab chiqarish korxonalarini dunyoning istalgan mamlakatlardan topish mumkin. Buyuk Depressiya davrida dizayn birinchi navbatda raqobat vositasi sifatida qabul qilingan.

Bauhaus va VXUTEMASning taniqli bitiruvchilari estetik va badiiy ta'lim olgan to'qimachilik ishchilari, temirchilar, kulollardan iborat bo'lgan. Ushbu birinchi dizayn maktablari ta'lim shakli san'at va hunarmandchilikni tubdan yaqinlashtirdi. O'sha paytda hunarmandchilik sohasi birmuncha eskirganday tuyuldi. Ishlab chiqarishni estetik va badiiy takomillashtirish vazifalarini bajarish uchun, rassom-hunarmandlar va san'at-sanoat maktablari bitiruvchilari birlashdilar, natijada uy-ro'zg'or buyumlari, oshxona buyumlari va mebellarning yangi dizaynlarini loyiha takliflarini ishlab chiqdilar. O'sha paytda asosan qo'lda va qisman dastgohda amaliy ishlar bajarilgan. Vaqtlar o'tishi bilan, amaliy san'at rassomining o'rnini sanoat dizayneri egallay boshladi⁴. Kompyuterni ishlab chiqarishga kirib kelishi bilan bezakchi-rassom o'rnini ham dizayner egallay boshladi.

Dizayn nazariyasi va metodologiyasiga oid kitoblar o'zbek tilida juda kam, Dizaynni o'zgarib turishida davr va dunyoqarashning xilma-xilligi, ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy ta'sirlar kabi sabablar talaygina. Dizayn jarayonini tahlil qilish muammolari, uning tashkiliy masalalari, o'qitish prinsiplari, ijodkorning ijodiy holatlari ham ba'zan yuqoridagi sabablarga aylanib qoladi.

Talabalar "Dizayn loyihalash metodologiyasi asoslari" fanini o'rganar ekanlar, bu fan bilan bir qatorda ular propedevtik fanlardan – "Chizmachilik", "Muhandislik grafikasi", "Loyiha grafikasi", "Kompozitsiya asoslari", "Tasviriy san'at tarixi", "Dizayn tarixi", "Nazariya" kabi fanlarni ham mukammal egallashlari talab etiladi. Dizayn metodologiyasi asoslari fani loyihalash, chizmachilik, arxitektura muhandisligi va interyer tarixi kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq.

Dizaynni professional xususiyatlarga ko'ra tizimlashtirib ko'rib chiqish mumkin. Sanoat dizayni - loyihalash sohasi bo'lib, uning maqsadi sanoatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ularning tarkibiy va funktsional xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirishdan iboratdir. Sanoat dizayneri faoliyatida har qanday kichik va katta ishlab chiqarish mahsuloti loyihasi o'zining takrorlanmas tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi lozim. Ushbu jarayonda qo'l mexnatidan tortib to katta –katta sanoat mashinalarigacha (dastgohlar va mashinasozlik mahsulotlari, transport vositalari, qurollar) muhim o'rin tutadi. Sanoat dizaynida eng muhim qo'llaniladigan narsa dizaynerning ijodiy fantaziyasi, kasbiy mahorati va tajribasidir.

Binoni loyihalash uning tashqi me'moriy muhit dizayni va ichki dizayni uyg'unligini taminlashdan iborat bo'ladi. Interyer dizayni jamoat joylari, turar-joy binolari va sanoat binolarining ichki qismi dizayni va jihozlarini loyixalashni o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi yo'nalishlarning har biri o'ziga xos

⁴ Боно Эдвард де. Искусство думать: латеральное мышление как способ решения сложных задач / Эдвард де Боно: пер. с англ. – Москва: Альпина Паблицер, 2015. – 171 с.



xususiylarga ega va professional vazifalar doirasini hamda ularni hal qilish uchun dizayn usullarini belgilaydi. Bundan tashqari bu dizaynlar qatorida Moda dizayni ham alohida o'rganiladi. Ilgari yuqori moda (model dizaynerining noyob ishi) va prêt-a-porter (moda dizaynerining ishi, ommaviy ishlab chiqarilgan kiyim sanoati mahsulotlari) ga bo'lingan. Bugungi kunda yuqori modaning bazilari ham alohida-alohida bo'linib o'rganiladi va ularda ishlatiladigan noyob zargarlik buyumlari ham, ommaviy ishlab chiqarilgan prêt-a-porter mahsulotlari moda dizayni sifatida tasniflanadi.

K.Balensia yuqori moda san'ati deb hisoblagan: "Kutyure kesish me'mori, rang rassomi, shakl haykaltaroshi, garmoniya musiqachisi va uslub faylasufi bo'lishi kerak". Uning modellari chiziqlarning mukammalligi, tasvirlarning cheklanishi va sirliligi hamda ajoyib kesimi uchun san'at asarlari bilan taqqoslangan, ular mavsumiy modaning inijliklariga bo'ysunmagan⁵. Bundan tashqari K.Balensiaga tatuirovka usuli yordamida modellar yaratishni bilgan, shu bilan birga yuqori moda hunarmandchiligini mukammal egallagan.

Dizayn o'z mohiyati jihatidan innovatsion jarayon, ya'ni yangi narsalar olamini yaratish yoki mukammallashtirmoq, inson hayoti davomida foydalanib kelgan buyumlarni ham, o'z xususiylarini ham yangilamoq demakdir. Shu bilan birga jahon dizayni zamonaviy etapda konseptualizatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. O'z navbatida konsepsiyalarga (badiiy, ilmiy, boshqaruv va boshqalar) asoslangan dizaynning loyihaviy-ijodiy, nazariy va tashkiliy-metodologik o'lchovlari uzviy bir-biriga bog'liqligini san'atshunos K. Akilova ilmiy tahlil qilgan. Sakkiz bosqichli metodologik yondashuv orqali «dizayn» so'zining asl ma'nosi, kelib chiqish tarixi, bosib o'tilgan rivojlanish jarayoni, bugungi san'at va madaniyatdagi o'rni, yangicha talqini ilmiy tomondan aniq yoritib berilgan.

Libos dizayni metodologiyasi kerakli natijalarga erishish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan usullar bilan uning qonuniyatlarini va metodikasini ilmiy izlanish asosida ko'p qiyofali amaliy dizayn faoliyatini tartibga solish va tizimlashga yo'naltirilgan⁶.

Grafik dizayn – kitob bezagidan tortib risola, buklet, afisha, sanoat grafikasi va qadoqlash, yorliqlar va savdo belgilari, tovar nomlari va shriftlarini ishlab chiqish, brendlarni yaratish, shahardagi bilbordlar va fasadlarda reklama mahsulotlarini hamda ularda sun'iy yorug'likni qo'llash san'ati ham rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda grafik dizaynerning an'anaviy ishi korxonaning korporativ identifikatorining asosiga aylangan murakkab grafik tizimlar bilan ishlash, interyer va shahar muhitidagi vizual aloqalar bilan to'ldiriladi.

Grafik dizayn, dizayn tarixi va metodikasi qadoqlash dizayni, tashish, saqlash va ma'lum darajada reklama qilish bilan shug'ullanadi. Misol tariqasida Naoto Fukasawa tomonidan ishlab chiqilgan sharbat qutilari dizaynini keltirish mumkin. Paketlar mevalarning rangi, ko'rinishi va hatto terisiga teginish hissini takrorlaydi, nafaqat ichki tarkibni aniqroq aks ettiradi, balki uni vizual idrok etishdan ham ko'proq narsani ta'minlaydi.

O'zimizga savol berib ko'ramiz, nima uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish juda tez suratlarda amalga oshib bormoqda? Sabablar talaygina. Masalan zamonaviy kompyuter dasturlari loyiha ustida ishlash vaqtini tejaydi, dizaynerning grafik va texnik imkoniyatlari palitrasini sezilarli darajada kengaytiradi, grafik dizayn ishini osonlashtiradi va badiiy g'oyani ijodiy izlanish imkoniyatini kengaytirib beradi. Badiiy grafika va muhandislik dasturlari uchun maxsus dizayn paketlari, jumladan, uch o'lchamli grafikalar, animatsiya imkoniyatiga ega kuchli dasturlar aynan kompyuter texnologiyalari orqali bajariladi. Xattoki muzeylarni dizaynini yaratishda maxsus proektorlar, galogramma va mapping programmalaridan ko'proq foydalana boshlandi.

Kulollar ishlarida ham kompyuter texnologiyalaridan etarli darajada foydalanilmoqda. Masalan: AutoMorph dasturiy moduli yordamida olingan keramika mahsulotlarining shakllari ravon ko'rinishga

⁵ Вершинин Г.В. Лекции по истории дизайна / Институт дизайна (Тюменский филиал Урал ГАХА), Тюмень, 2005–2007.

⁶ Mirzanazarova E.Ya. XX asr O'zbekiston libos dizayni: asosiy bosqichlar va rivojlanish tamoyillari. Monografiya. T. 2021. 45 b.



ega bo'ladi. V. Dronov Tomsk politexnika universitetida ishlab chiqilgan AutoMorph dasturiy moduli model parametrlarini avtomatlashtirilgan o'zgartirish orqali mahsulotning eng uyg'un shaklini tanlash, uni uch o'lchamli tasvirda ko'rsatish imkonini beradi. Loyihalashtirilgan ob'ekt shakllarining vizualizatsiyasini yaratish va ularning turli sharoitlarda ishlashini tekshirish muayyan bilim va ko'nikmalarni talab etadi.

A.Sokolov M.S.Kuxta dizayn tarixi va metodikasi kitobida "Art-dizayn, dizayn turi bo'lib, unda yaratilgan ob'yektning badiiy va emotsional-majoziy fazilatlarini klassik dizayn an'alaridan ustun bo'ladi, masalan, ratsionallik yoki ishlab chiqarishga yaroqlilik, funktsionallik shart bo'lsada, asosiy pozitsiyalar mavjud emas"⁷ – deydi.

Art-dizayn ijodiy shaxsning o'zini namoyon qilish vositasidir. Mahsulotlar sonini ko'paytirish uchun mo'ljallanmagan har qanday mualliflik dizayni, badiiy dizayn deb ataladi. Professionallar orasida Art Design atamasi quyidagilarga nisbatan qo'llaniladi: Zargarlik buyumlari dizayni – asosan qimmatbaho toshlar (oltin, kumush, platina) bezak buyumlari dizayni (shaxsiy bezaklar, uy-ro'zg'or buyumlari, kundalik hayotda ishlatiladigan maishiy qurollar).

Ushbu dizayn sohasida qimmatbaho metallar va bezak toshlar, shuningdek, shisha, marvarid, suyak va boshqa ekzotik materiallar bilan birgalikda ishlatiladi. Bunga biz Art-nuvo uslubidagi Rene Lalikning zargarlik buyumlarini misol qila olamiz.

Dekorativ-dizayn san'ati – interyerni bezash, mualliflik ishlari, ko'rgazma, muzey va dekorativ interyer ob'ektlarini yaratish kabilar kiradi.

- Floristik dizayn - guldastalar yasash, interyerni boyitish bezaklari.
- Aksessuarlar, suvenirilar va sovg'alar dizayni.
- Dekorativ to'qimachilik - batik, gobelen, to'qimachilik bezaklari. Art-dizayn atamasi 1980-yillarda paydo bo'lgan. XX asrda Italiyada ikkita dizayn guruhi paydo bo'lib, ular funktsional dizaynning pravoslav dunyosiga qarshi chiqqan "Alximiya" (A.Mendini, A.Guerriero) va "Memfis" (E.Cottsass)⁸.

An'anaviy ravishda elita iste'molchilariga qaratilgan va san'at sohasiga tegishli bo'lgan zargarlik buyumlari dizayni, zamonaviy odamning (zargarlik buyumlari orqali) sub'ektiv munosabat va qadriyatlar tizimini ko'rsatishga bo'lgan ehtiyoji tufayli yangi sohalarni zabt etmoqda. Insoniyat paydo bo'lishining boshida paydo bo'lgan (ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, zargarlik buyumlari kiyimdan oldin paydo bo'lgan), zargarlik buyumlari dizayni uzoq vaqt davomida "zargarlik san'ati" yoki "zargarlik buyumlari" sohasiga tegishli edi.

Oxirgi atama materiallarni badiiy qayta ishlash texnologiyalarini o'zlashtirish zarurligini ta'kidladi, ularsiz zargarlik buyumlarini yaratish mumkin emas. Zargarlik buyumlarining asosiy vazifasi - dekorativ - birinchi navbatda badiiy did va mahorat darajasi bilan bog'liq. Badiiy ijod ("zargarlik san'ati") va hunarmandchilikning ("zargarlik buyumlari") birlashuvi zargarlik buyumlari dizayni va dizaynning boshqa turlari o'rtasidagi hamohanglikni ko'rsatadi. Aynan zargarlik buyumlari dizaynida badiiy tasvir va uning estetik qiymati birinchi o'rinda turganligi sababli, dizaynning bu turi azaldan san'at va badiiy ijod sohasiga tegishli sanalib kelgan.

Sanoat namunasi ob'ektlarini yaratishda sifatning asosiy ko'rsatkichi funktsional komponent hisoblanadi: shakl sanoat mahsulotining talab qilinadigan funktsiyalarining eng to'liq va qulay bajarilishini ta'minlashi kerak. Shunday qilib, sanoat dizaynida shakllantirishga funktsionallik printsiplari ta'sir qiladi: "shakl funktsiyadan keyin". Ko'pincha individual ehtiyojlarga yo'naltirilgan zargarlik buyumlari dizaynida mahsulotning badiiy o'ziga xosligi birinchi o'ringa chiqadi.

Zargarlik buyumlari dizayni madaniyatlar rivojlanishida alohida o'rni bor. Zargarlik buyumlari dizayni utilitar ehtiyojlar bilan bog'liq emas, balki o'zini namoyon qilish, ijtimoiy mavqeini aniqlash uchun

⁷Аронов В. Р. Дизайн в культуре XX века, 1945–1990 / В. Р. Аронов. – Москва: Издатель Д.Аронов, 2013. – 405 с.

⁸Глазычев В. Дизайн как он есть / В. Глазычев. – Москва. 2011. – 320 с.



xizmat qiladi, ramziy xususiyatga ega va zargarlik dizaynining quyidagi funksiyalarini ajratish mumkin: sakral va kult; ijtimoiy va kommunikativ; belgi-ramziy; estetik va badiiylilik.

T.Yu.Bystrova asarlarida dizaynning quyidagi funksiyalarini aniqladi: dizaynning ratsionalizatsiya funksiyasi - bu narsaning nafaqat mohiyatini, balki “tug'ilish” yo'lini ham ifodalovchi shakllarning paydo bo'lishiga olib keladigan ratsionallik tamoyillarini izchil amalga oshirish. Narsaning maqsadini, uning mohiyatini bilish ma'nosida ifodalilik va maqsadga muvofiqlikning organik birikmasi. Dizaynning tashkiliy funksiyasi ob'ektiv dunyo va makonni tartibga solish, tashkil etishdir. Dizayn - muayyan ob'ektlarga e'tibor qaratadi va makonni ajralmas tizim sifatida qabul qilishga imkon beradi. Bundan tashqari odamlarning his-tuyg'ularini, e'tiborini boshqarishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.С. Кухта. История и методология дизайн-проектирования. Издательство ТПУ 2021.
2. Боно Эдвард де. Искусство думать: латеральное мышление как способ решения сложных задач / Эдвард де Боно: пер. с англ. – Москва: Альпина Паблишер, 2015. – 171 с.
3. Вершинин Г.В. Лекции по истории дизайна / Институт дизайна (Тюменский филиал Урал ГАХА), Тюмень, 2005–2007.
4. Mirzanazarova E.Ya. XX asr O'zbekiston libos dizayni: asosiy bosqichlar va rivojlanish tamoyillari. Monografiya. T. 2021. 45 b.
5. Аронов В. Р. Дизайн в культуре XX века, 1945–1990 / В. Р. Аронов. – Москва: Издатель Д.Аронов, 2013. – 405 с.
6. Глазычев В. Дизайн как он есть / В. Глазычев. – Москва. 2011. – 320 с.
7. Xodjaev A. A. et al. IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLAR UCHUN JAMOAT BINOLARIDA HARAKATLANISHLARIDAGI MAVJUD TURLI XIL MUAMMOLARNI ANIQLASH //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 560-565.
8. kizi Salomova F. L., Matniyazov Z. E., Mannopova N. R. Methods of Using Ethnographic Elements in Furniture Design //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 166-170.
9. Ravshanovna M. N. et al. Umumiy ovqatlanish muassasalari interyerlari muhitini tashkil etish va unda zonalashtirishning ahamiyati //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 186-191.
10. Abdalimovich A. B. Application of plastic products in construction and design. – 2021.
11. Tabibov A. L. Experience of Using Operated Roofs Abroad //INTERNATIONAL JOURNAL ON ORANGE TECHNOLOGY.
12. Tabibov A. L. Modern Architectural and Artistic Look of the City of Tashkent //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2023. – Т. 4. – №. 9. – С. 47-50.
13. kizi Sultanova M. F. The role of tour bases in the development of tourism in Uzbekistan //International Scientific and Current Research Conferences. – 2021. – С. 1-5.
14. Kasimov O. S., Miguel A. A. A. Теория и практика современной науки //теория и практика современной науки Учредители: ООО «Институт управления и социально-экономического развития. – Т. 10. – С. 24-31.
15. Kasimov O. S. et al. Oliy ta'lim muassasalarida mavjud muzeylarning ZAMONAVIY dizayn konsepsiyasi (MGU Toshkent filiali misolida) //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 51-57.
16. Kasimov O., Qaxramonovna N. F. TRENDS AND INNOVATIONS IN MODERN MUSEUM INTERIORS IN UZBEKISTAN ON THE EXAMPLE OF THE WAX MUSEUM //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 13-19.

